



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

GERMANY

CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
SCIENCE, ENGINEERING AND
TECHNOLOGY**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi[®] digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY:
a collection scientific works of the International scientific conference –
Gamburg, Germany, 2025 Issue 6

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish,

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference « **INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY** ». Which took place in Gamburg, 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.



Nutqiy rivojlanishida og'ir nuqsoni bor bo'lgan bolalar bilan individual ishlashning pedagogik psixologik asoslari

Sulaymonova Sedona Sanjarovna

Qarshi davlat universiteti 1-kurs talabasi

sedonasulaymonova7@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada nutqida og'ir nuqsoni bor bo'lgan bolalarda nutq ko'nikmalarini shakllantirish va nutq rivojlanishining o'ziga xos pedagogik yondashuvlarini aniqlashda olib boriladigan mashg'ulotlar va metodlarini rejalashtirish, hamda ushbu metodlarni bolada qo'llash dolzarb masala ekanligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar; Nutqiy rivojlanish, pedagogik - psixologik asoslar, nutqiy buzilish, individual yondashuv, nutqdagi og'ir nuqsonlar, pedagogik korreksiya.

Kirish. Jamiyatimizda inklyuziv ta'lim doirasida alohida ta'lim olishga ehtiyoji bo'lgan bolalar ta'limni tashkil etish va optimallashtirish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Alohida ta'lim olishga muhtoj bo'lgan bolalarning orasida nutq nuqsonlari mavjud bo'lgan bolalar ko'pchilikni tashkil etadi. Chunki, nutq nuqsonlari ko'pincha boshqa nuqsonlarning ta'siridan kelib chiqishi, ya'ni mujassam nuqsonli bolalarda namoyon bo'ladi. Dizartriya, rinolaliya, alaliya, afaziya kabilar bunga misol bo'ladi. Achinarlisi bunday bolalar kun sayin ortib bormoqda. Shu kabi nuqsonga ega bo'lgan bolalarga malakali mutaxassis va logopedlar tomonidan yakka tartibdagi individual darslar o'tib boriladi. Nutqdagi qashshoqlik uzoq muddatli salbiy asoratlarga, noqulay sharoitlarga, iqtisodiy va ijtimoiy xarajatlarga olib keladi.

ASOSIY QISM. Nutqida nuqsoni bor bo'lgan bolalarda, aynan shu nuqsonni buzilish sabablari, uni bartaraf etish usullari, nutqni o'stiruvchi turli xil pedagogik metodlarni qo'llash, nutqdagi kamchiliklarni kamaytirish va bartaraf etish usullarini ko'plab mutaxassislar, hamda psixopedagoglar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borib o'rganilgan. Bularga misol qilib M.Y.Ayupova, E.F.Sabotov, V.S.Raxmonovani keltirishimiz mumkin.

Xususan, M.Y. Ayupovaning fikriga ko'ra, "Og'ir nutqiy buzulishlar aqliy rivojlanishga ayniqsa, bilish faoliyati oliy darajalarining shakllanishiga ta'sir etishi mumkin. Nutqiy buzulish, nutqiy muommalarning cheklanganligi bola shaxsining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, aslida bo'lmagan ruhiy buzulishlarni, hissiy irodaviy sohaning o'ziga xos xususiyatlarni keltirib chiqarishi, uning xarakteridagi salbiy fazilatlarning rivojlanishi uchun yo'l ochib berishi mumkin" deb ta'kidlaydi. [1] Haqiqatdan ham, bir nuqson o'zi bilan boshqa bir nuqsonni keltirib chiqaradi shunday nuqsonlardan biri dizartriya hisoblanadi.

Dizartriya - nutq apparati innervatsiyasining organik jihatdan jarohatlanishi sababli nutqning talaffuz tomonidan buzilishidir. Bu termin "grekcha" so'zdan olingan bo'lib, dis - bo'lak, arthon - biriktirish degan



ma'noni anglatadi. Dizartriyada nutq a'zolarining yumshoq tanglay, til, lablar, kam harakatlanishi natijasida nutq tovushlari artikulyatsiyasi qiyinlashadi, shu bilan birgalikda ovoz, nafas buzilishlari hamda nutqning sur'ati, ritmi va ifodaliligida o'zgarishlar kuzatiladi. Dizartriyada miyaning turli joylarida jarohatlanishlarni aniqlash mumkin. Masalan, miya yarimsharining chap va o'ng tomonida, yettita tuxumsimon markazdan o'tuchi sistemada, asab tugunchalari qobig'ida, diensefal doirada, to'rt tepalikda, ko'prik, cho'zinchoq va orqa miyada kuzatilishi mumkin.

E.F.Sabotovichning fikriga ko'ra "Ko'pincha nutq buzulishlari tizimli xarakterga ega bo'lib, nutqning fonetik fonematik, leksik grammatik va sintaktik tomoni zarar ko'radi. Nutq faoliyatining tizimli buzulishi turli xil nutq patologiyalarida kuzatiladi; alaliya, dizartiya, anartriya, nutqning umumiy rivojlanmaganligi nutqiy rivojlanishning kechikishi va boshqalar."[2]

Ko'pchilik mutaxassislar dizartriyaning tasniflashda jarohatlanish o'chog'ini hisobga olish tamoyiliga amal qilib, dizartriyaning quyidagi turlarga ajratdilar; bulbar, psedobulbar, qobiqli dizartiya, qobiqosti va miyachali dizartiya.

Bulbar dizartiya - qattiq talaffuz qilinadigan tovushlar nisbatan kamroq va kechikib buziladi. Til usti muskullari shikastlangan holatda birinchi navbatda yumshoq tovushlar talaffuzi, artikulyatsiyasi va til o'rta talaffuzining buzilishi ro'y beradi. Nutq apparati muskulining paralichi qanchalik diffuz va buzilish darajasi qanchalik chuqur bo'lsa, nutq tovushlari shunchalik qo'pol buziladi. Bulbar dizartiyaning og'ir hollarida eng sodda burun tovushlarini talaffuz eta olish qobiliyati sustlashib ketadi.

"Psixologik - pedagogik ma'lumotlarga ko'ra, nutqning rivojlanishi turli darajadagi murakkablikka ega. Shuni ta'kidlash kerakki, barcha klinik shakllarda nutqning rivojlanishi g'ayritabiiy bo'lib, birinchi daraja sifatida tasniflash mumkin". R.E.Levinaning ushbu fikrlariga ko'ra, nutq rivojlanishining turli xil darajalari va ko'rinishlari mavjud va ularning har biri bir - biridan simptomlari bo'yicha farqlanadi degan xulosaga kelish mumkin.[3]

V.S. Raxmonovning ta'kidlashicha, "Logoped bolalarning psixologik qobiliyatlarini hisobga olishi kerak. Bolalarni o'z kuchiga ishonitirilishi, mashg'ulotlarga havasini uyg'ota bilishi, material bayoni vaqtida ularning diqqatini to'la jalb qila olish, materialni esda saqlab qolish, yo'llarining [mashq ko'rgazmali qurollardan foydalanish, mustaqil ish, suhbat, grammatik o'yin kabi vositalarni] qo'llanilishi o'qitish samaradorligini yanada oshiradi. Inson idrokining mazmuni, fikri, nutqi orqali shakllanadi. [4] Olimaning bu fikridan shunday xulosaga kelish mumkinki, bolaning o'ziga ishonchi, uning qiziqishlari, e'tibori va fikrlash qobiliyati logopedik mashg'ulotlar hamda mashqlar bilan rivojlanadi.



Dizartriya da artikulyatsiya motorikasining buzilishi, artikulyatsiya mushaklarining harakatchanligini cheklanganligi, natijasida kelib chiqadi va bu hol mushaklar tonusining ortishi, ixtiyorsiz harakatlar va diskoordinatsion buzilishlar hisobiga yanada og'irlashadi. Artikulyatsiya mushaklarining harakatchanligini yetarli emasligi natijasida tovushlar talaffuzida kamchiliklar kelib chiqadi. Lab mushaklarining jarohatlanishi natijasida ham unli, ham undosh tovushlar talaffuzida kamchiliklar kuzatiladi. Ayniqsa, lab undoshlari b,p,m, tovushlar talaffuzida buzilishlar kuzatiladi. Lablar harakatining cheklanganligi butun artikulyatsiyani buzilishiga olib keladi.[5]a

Dizartriya ni bartaraf etish bo'yicha olib boriladigan logopedik ta'sir tizimi kompleks ravishda amalga oshiriladi, ya'ni, artikulyatsion apparat massaji va gimnastik mashqlari, ovoz va nafas ustida ishlash, umumiy davolash, davolovchi jismoniy tarbiya, fizioterapiya va dori-darmonlar bilan davolash ishlari o'tkaziladi. Asosiy diqqat bolada nutqning rivojlanish holatiga, nutqning leksik-grammatik tomoniga hamda nutqning aloqa funksiyasi xususiyatlariga qaratiladi. Maktab yoshidagi bolalarda yozma nutq holati ham hisobga olinadi. Uzoq vaqt davomida muntazam ravishda olib boriladigan mashg'ulotlar sekin-asta artikulyatsion apparat motrikasini normallashtiradi, artikulyatsion harakatlarni rivojlantiradi hamda fonematik eshituvni to'laqonli rivojlantirishga yordam beradi. Dizartrik bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlarning usullari quyidagilar.

1. Tovushlarning to'g'ri talaffuzini o'rgatish ya'ni artikulyatsion motorikani, nutqiy nafasni rivojlantirish va tovushni nutqqa qo'yish va mustahkamlash.
2. Fonematik idrokni rivojlantirish, tovush analiz malakasini shakllantirish.
3. Nutqning ritm, ohangdorligi va ifodaliligi tomonidagi kamchiliklarni bartaraf etish.
4. Paydo bo'lgan nutqning umumiy rivojlanmaganligini to'g'irlash.

Xulosa qilib aytganda, nutqiy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan individual ishlash bu murakkab, ammo, nihoyatda zarur pedagogik-psixologik jarayondir. Bunday ishda har bir bolaning yoshi, psixologik va individual xususiyatlarini hisobga olish, unga mehr bilan yondashish, muhim ahamiyatga ega. To'g'ri tashkil etilgan individual mashg'ulotlar bola nutqini to'g'irlash bilan birga, uning fikrlash, eslab qolish, muloqotga kirishish va o'ziga ishonch tuyg'usini ham rivojlantiradi. Shunday qilib, pedagogik va psixologik asoslarda olib borilgan individual ishlar nutqida og'ir nuqsoni bo'lgan bolalarning jamiyatda to'laqonli shaxs sifatida shakllanishiga, ularning ijtimoiy va emotsional moslashuviga mustahkam zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. M.Y. Ayupova Logopediya T; "O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati" nashriyoti. 2007



2.Е.Ф.Соботович Речевое недоразвитие у детей и пути его коррекции;[дети с нарушением интеллекта и моторной алалией] Е.Ф. Соботович; М. "Классик с Стилъ 2003-160с.

3. Левина Р.Е.Опыт изучения неговорящих детей алаликов \Р.Е.Левина М.ГУПИ МП. РСФСР 1951-120С

4.Y.S.Rahmonova."Defektalogiya asoslari".T."Niso poligraf "nashriyoti 2017

5.M.Y.Ayupova Korreksion ishlar metodikasi ma'ruza matni .T.2001.

